

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

Tong Yulduzi

2013-yil 9-sentabr
N:36 (66941)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqq boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN – 2010-6092

FARZANDLAR KAMOLI – YURT ISTIQBOLI



2-sentabr kuni yurtimizdagi barcha ta'lim maskanlarida nishonlangan Istiqlolning 22 yillik shodiyonalari hamda Bilimlar kuni tadbirlarining zavqi, hayajoni dillarini tark etmagan o'quvchilarimiz yangi o'quv haftasini ham boshlab yuborishdi.

Yangi ta'mirdan chiqarilgan, zamon talablari darajasida jihozlangan sinf xonalarida, chet tili va informatika fanlariga ixtisoslashtirilgan maxsus sinflarda yangi o'quv adabiyotlari bilan to'la ta'minlangan holda tahsil olayotgan o'quvchilar qalbida minnatdorlik tuyg'ulari jo'sh urmoqda. Ayniqsa, Prezident sovg'alarini qabul qilib olgan 1-sinf o'quvchilarining quvonchi cheksiz.

Shuni alohida e'tirof etishni istardikki, 2013-yilda Investitsiya dasturi asosida yangidan qurilgan, rekonstruksiya qilingan va ta'mirdan chiqarilgan maktablar soni 381 tani tashkil etdi. Umumta'lim maktablarining 1-, 4-, 6-, 7-sinf o'quvchilari uchun jami 392 nomda 22 533 772 nusxa darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalari to'la chop etildi va joylarga yetkazildi.

Sh. MAXMADIYEV olgan sur'atlar

DARS MUQADDAS



Davomi 2-betda

MEN MAKTABGA BORYAPMAN,

– deydi poytaxtimizdagi 249-maktabning 1-sinfiga qadam qo'ygan Lazizbek Akbarov.
Ayni kunlarda barcha tengdoshlari kabi uning ham sevinchi ichiga sig'maydi. Prezident bobosidan olgan sovg'alarini hech qayerga ishonmaydi. Rango-rang suratlar bilan bezatilgan, chiroyli darsliklarini qayta-qayta varaqlaydi, o'quv qurollarini avaylab papkasiga joylaydi. Har tong maktabiga oshiqib, ustoz Galina Kirsanova, ingliz tili fani o'qituvchisi Gulira'no Yo'ldoshevaning saboqlarini puxta o'zlashtirishga intiladi...
Bilimlar qasriga qo'ygan ilk qadaming muborak, aziz bolajon!



DIQQAT! DIQQAT! «OBUNA – 2014» BOSHLANDI!

Qadrli o'quvchilar, biz bilan do'st-u qadrdon bo'lib, kelasi yilda ham «Bu kitobni o'qing», «Ingliz tilini o'rganamiz», «O'g'il bola – mard bola», «Dugonalar», «Dunyodagi tengdoshim», «Jonivorlar olami» kabi rukn va sahifalarimizni, shuningdek, taniqli bolalar adiblarining yap-yangi hikoya va qissalarini o'qib borishni istasangiz, «TONG YULDUZI»ga obuna bo'lishga shoshiling!

Nashr ko'rsatkichi – 198



FARZANDLAR KAMOLI — YURT ISTIQBOLI

(Boshi 1-betda)

Kuni kecha poytaxtimizdagi Milliy matbuot markazida «Ta'lim muassasalarini o'quv adabiyotlari bilan tizimli ravishda ta'minlash masalalari, dars jarayoniga axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish borasida belgilangan ustuvor yo'nalishlar» mavzuida matbuot anjumani bo'lib o'tdi.

Xalq ta'limi vazirligi hamda O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi hamkorligida tashkil etilgan mazkur tadbirda xalq ta'limi tizimidagi muassasalarda yangi o'quv yiliga tayyorgarlik borasida amalga oshirilgan ishlar, o'quvchilarni adabiyotlar bilan to'liq ta'minlash, pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish hamda

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil dekabrda «Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorining ijrosi bo'yicha qilingan ishlar, 1-sinfdan chet tillarini o'qitish borasida amalga oshirilayotgan ishlar xususida axborot berildi. Yosh avlodning ma'nan va jismonan barkamol ulg'ayishini ta'minlash yo'lida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar xususida o'xtalib o'tildi.

— Xalq ta'limi tizimidagi ta'lim muassasalarining chet tili kabinetlarini jihozlash dasturi doirasida joriy yilning oxirigacha 2457 ta boshlang'ich va 1485 ta yuqori sinf xonalari zamonaviy

kompyuterlar, o'quv-kor'gazmali qurollar, elektron doskalar bilan jihozlanadi, — dedi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri U. Inoyatov. — Shuningdek, umumta'lim maktablarining 1-sinflari uchun yaratilib, chop etilgan «Kids' English» ingliz tili darsligi majmuasiga qo'shimcha ravishda o'qituvchilar va ota-onalar uchun o'zbek tilida 446 084 nusxa hamda rus tilida 59 974 nusxa qo'llanma chop etildi va joylarga yetkazildi.

— Bu yilgi darslik va o'quv metodik qo'llanmalar nafaqat soha mutasaddilari, balki keng jamoatchilik — o'qituvchilar, ona-onalar muhokamasidan o'tkazildi, — dedi O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi Bosh direktori O. Yunusov. — Ularni yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritildi.

Anjumanda, shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanib borayotgan ayni kunlarda barcha maktablarni yagona ta'lim portaliga birlashtirish maqsadida yurtimizda Multimedia umumta'lim dasturlarini rivojlantirish markazi tashkil etilgani, zamonaviy elektron darsliklar va multimedia vositalarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish yo'lga qo'yilgani haqida ham so'z bordi.

Soha mutasaddilari, o'qituvchi va murabbiylar, ommaviy axborot vositalari ishtirokidagi mazkur anjuman juda mazmunli o'tdi.

O'z muxbirimiz



SADQAT olgan surat

BAYRAMGA MUNOSIB TUHFA

Bu yilgi Mustaqillik bayramini poytaxtimizdagi «Oqlon» mahallasi ahli har qachongidan-da ko'tarinki kayfiyatda qarshi olishdi.

Boisi, mahalla hududidagi 141-maktab binosi Davlat dasturiga muvofiq, to'liq ta'mirlanib, eng ulug', eng aziz bayramimiz arafasida foydalanishga topshirildi. Bu esa ana shu maskanda tahsil oladigan o'g'il-qizlarga chinakam bayram tuhfasini bo'ldi.

Maktab binosining tantanali ochilish marosimi katta shodiyonaga aylanib ketdi. O'quv maskaniga o'n besh yildan buyon rahbarlik qilib fidoiy ustoz Abdumalik Hojinzarov tadbirda so'zga chiqib, mamlakatimizda yosh avlodga ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor, ularning ta'lim olishi, sport bilan shug'ullanishi uchun yaratib berilayotgan sharoitlar xususida to'liqlanib so'zladilar. «Vatan» nomli she'ri bilan barchaning olqishiga sazovor bo'lgan Mo'mina Muhammadova birinchi qo'ng'iroqni chalib, o'quvchilarni «Mustaqillik darsi»ga chorladi. Yangi maktabning shinam va yorug' sinfxonalarida o'quv yilini boshlagan har bir o'quvchi-yu o'qituvchi qalbida Istiqlol bergan imkoniyatlardan faxrlanish hissi jo'shurdi. Ayniqsa, 1-sinf o'quvchilari uchun berilgan



Nigora ABDUNAZAROVA

— Men yozgi ta'tilda viloyatimizda faoliyat yuritayotgan «Barkamol avlod» bolalar markazi qoshidagi to'garaklarga qatnab, hunar o'rgandim, ko'plab do'stlar orttirdim. — deydi navoiylik tengdoshingiz E'zoza Turdiyeva.

Chindan ham, Navoiy viloyati «Barkamol avlod» bolalar markazi qoshida faoliyat yuritayotgan o'ndan ortiq to'garaklar yil davomida o'quvchilar bilan gavjum. Tuman-dagi 11 ta «Barkamol avlod» bolalar markazlari qoshida 168 nomda faoliyat yuritayotgan to'garaklarga 4240 nafar o'quvchi yoshlar jalb qilingan.

Viloyatdagi iqtidorli o'quvchilarni izlab topish, ularni har jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida «Barkamol avlod» bolalar markazi, «Kamolot» YOIH, «Kelajak ovozi» yoshlar tashabbuslari markazi, Tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi, «Sog'lom avlod uchun» xalqaro xayriya jamg'armasi, «Salomatlik markazi» va yana bir qancha tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda ko'plab ommaviy tadbirlar va sport musobaqalari o'tkazib turiladi.

Bundan tashqari, to'garaklarga qatnaydigan yoshlar o'z bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash maqsadida o'zaro bellashuvlar o'tkazishadi. Jumladan, «Bir bolaga yetti mahalla ota-ona», «Bu aziz Vatanda azizdir inson» mavzusida davra suhbatlari, «Mening obod o'lkam» rasmlar tanlovi, «Musiqqa — qalb ko'zgi» musiqali dasturi, «Yosh avlod — yurt kelajagi», «Kamalak»ka intilib, «Kamolot»ga yetamiz» sport musobaqasi, «Mening bo'sh vaqtim» insholar tanlovi orqali ko'plab iste'dod egalari aniqlanib, muntazam rag'batlantirib boriladi.

Shuningdek, markaz yoshlari respublika miqyosida

o'tadigan tanlovlarda ham faol ishtirok etib kelishmoqda.

Jumladan, «Konstitutsiya g'urur va iftixorimizdir» ko'rik-tanlovida E'zoza Turdiyeva 1-o'rinni, «Yilning eng yaxshi ixtirochisi» ko'rik-tanlovida Uyg'un Samandarov 2-o'rinni, «Yosh ijodkor» ko'rik-tanlovinin «Tasviriy san'at» yo'nalishida Dilshod Shavkatov 1-o'rinni, «Liboslar dizayneri» yo'nalishi bo'yicha Lobar O'tayeva 2-o'rinni qo'lga kiritishdi.

O'quvchilarni bunday muvaffaqiyatlarga erishishida Nargiza Ibragimova, Naima Usmonova, Mahliyo Aliqulova, Kamola Ashurmetova singari to'garak rahbarlarining o'rmi beqiyos.

Shuningdek, o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkillashtirish, ularni ajdodlarimiz qoldirgan boy madaniy meros bilan yaqindan tanishtirish maqsadida shaharning diqqatga sazovor tarixiy joylariga, ziyoratgohlarga, tabiat qo'yniga tez-tez sayohatlar uyushtiriladi.

Bolajonlar! Mana, navoiylik tengdoshlaringizning ta'til davomida erishgan yutuqlari bilan qisqacha bo'lsa-da, tanishdingiz. Siz-chi, yoz davomida qanday yumushlar bilan shug'ullandingiz? Qanday yutuqlarga erishdingiz? Bu haqda bizga, albatta, yozib yuboring.

Ozoda TURSUNBOYEVA

«BARKAMOL AVLOD» - BOLALARNI ETAR SHOD



UNUTILMAS UCHRASHUV

Dunyoda inson zoti borki, u xoh katta, xoh kichik bo'lsin, mehrga intiq bo'lib yashaydi. Ko'ngillar hamisha shirin so'zdan quvvat oladi. Bu dunyoning ziynati ham insonlarga yaxshilik qilishdir.

Istiqlol bayrami arafasida Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumanida joylashgan «Mehrjon» bolalar sog'lomlashtirish oromgohida taniqli olim va adiblar ishtirokida Mustaqillikning 22 yilligiga bag'ishlab «Qadr-qimmatim, tayanchim va iftixorimsan, mustaqil O'zbekiston!» shiori ostida «Mustaqillik va milliy qadriyatlar» mavzusida uchrashuv bo'lib o'tdi. Elshunos olim, «Mehrjon» bayrami asoschisi Bilol Aminov milliy an'analar, urf-odatlar, «Navro'z», «Mehrjon» bayramlari tarixi haqida yig'ilganlarga qiziqarli ma'lumotlar berdi. Ijodiy uchrashuvda Xorazm viloyatidan kelgan bolajonlar Vatan, baxtiyor bolalik haqida she'r va qo'shiqlar ijro etishdi.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Jo'raboy Xolmatov o'z ijod namunalari bilan o'qib berdi. «Mehrjon»da har yili minglab qoraqalpog'istonlik va xorazmlik boquvchisini yo'qotgan va ehtiyojmand oila farzandlari dam olishadi. Tadbirda bolajonlarga, tarbiyachi va yetakchilarga, oromgoh kutubxonasi, «Ma'naviyat va ma'rifat» markaziga kitoblar sovg'a qilindi.

Ijodiy uchrashuv bolajonlarda katta taassurot qoldirdi.

Nargiza ORTIQOVA,

«Mehrjon» oromgohining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari



KO'PLAB DO'STLAR ORTTIRDIM



Ta'tilda Bo'stonliq tumanidagi «Aloqachi» oromgohida dam oldim. U yerda yaratilgan sharoitlar, tog'ning musaffo havosi, go'zal va betakror tabiati bizni o'ziga rom etdi.

Tarbiyachilarimiz zerikib qolmasligimiz uchun turli harakatli o'yinlar, tadbirlar uyushtirishdi. Bunday tadbirlarda men ham faol qatnashdim va «Faxriy yorliq» hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlandim. Dugonalarim Dildora, Madina, Malika, Durдона, Feruza bilan birgalikda oromgohning «Ma'naviyat va ma'rifat» markaziga tez-tez borib turdik. U yerdagi turli badiiy, ilmiy adabiyotlar bilan tanishib, taniqli adiblarimizning sara asarlarini o'qib chiqdik. Ko'plab do'stlar orttirdim.

Endi ular bilan doimo aloqada bo'lib turaman.

Malika ERGASHEVA,

Samarqand viloyati, Narpay tumanidagi 24-maktabning 8-«A» sinf o'quvchisi

BAXTLI TENGDOSHIM

Yurtboshimizning «Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta, baxtli bo'lishlari shart» degan tilaklari meni behad hayajonlantiradi. Mustaqillik yillarida bizning bilimli bo'lib ulg'ayishimiz uchun barcha sharoitlar yaratildi. Jismonan kuchli bo'lishimiz uchun bolalar sportiga katta e'tibor berilmoqda. Ozod va obod yurtimizda

har bir bolaning yuzida shodonlikni, quvonchni ko'rishimiz mumkin! Zero, mustaqil va tinch diyoy farzandi bo'lishning o'zi oliy baxt!

Shunday ekan, biz baxtimiz, tengdoshim!

Yulduz SUVONBERDIYEVA,

Jizzax viloyati, Yangiobod tumanidagi 1-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi

Yozgi ta'til kunlarida ustozining topshirig'iga ko'ra Nafisa kitob o'qishga kirishdi va onasidan mutolaa uchun kitob so'radi. Onasi unga javondan bir kitobni avaylabgina olib berdi. Uni qiziga tutqazar ekan, bolalik damlarini yodga olib, kulimsirab qo'ydi. Nafisa bir muddat kitobga tikilib qoldi. Nazarida

kitob unga, sen meni o'qib-o'rgan, hayot tilsimlariga javob topasan, hurmat-u izzatga sazovor bo'lasan, deya yotganday edi.

Nafisa qiziqib kitobning ichiga ko'z yugurtirdi. Bildiki, bu kitob onasining tug'ilgan kuniga dugonasidan sovg'a ekan. Sanasiga qaradi, bu sovg'a onasiga bundan 30 yil avval berilgan ekan. Nafisa yugurib borib o'zini onasining bag'riga otdi va kitob bilan so'zlashganini aytib,

savollarga ko'mib tashladi. Bu holat onasiga ham yaxshi tanish ekan. U ham bolaligida bu hissiyotga ta'rif

bera olmagan, tushuna olmagan ekan. Ammo vaqt o'tishi bilan inson kitobga astoydil mehr qo'ysa, do'st tutinsa, uning dili-yu tilini tushunishini anglab yetibdi. Nafisa onasining fikrlariga yanada qiziqib:

«Kitobning dili, tili qanday?», «U bilan do'stlashish mumkinmi, axir u jonli emas-ku?!» kabi savollariga javob axtarardi. Onasi esa hech erinmay ularga javob berardi... Kunlar ketidan oylar o'tib, Nafisaning tug'ilgan kuni ham keldi. Dugonalari unga xilma-xil sovg'alar taqdim etishdi. Ularning orasida bitta kitob ham bor edi. Nafisa shosha-pisha uning ichki betlarini ochdi. Qarasa, hech qanday tabrik so'zlari yo'q. U dugonasidan kitobiga dil so'zlarini yozib berishini iltimos qilib so'radi. So'ngra unga: «Bu men uchun eng aziz, qadrlil kitob bo'lib qoladi», dedi. Nafisa ham onasi kabi bu sovg'ani ardoqlab, avaylab farzandlariga ko'rsatmoqni niyat qilgandi.

Dilora NURIDDINOVA,

Toshkent shahridagi 121-maktabning 5-sinf o'quvchisi

QADRIL SOVG'A



«KAMOLOT» BILAN O'TKAZING



«Kamolot» YOIH unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizning tom ma'noda suyanchi va tayanchiga aylanib, ularni ijtimoiy faoliyatga keng jalb qilish, ijodiy va intellektual salohiyatini rivojlantirishga katta hissa qo'shib kelayotgan tashkilot, desak adashmaymiz.

Tashkilot tomonidan yoshlar uchun yaratilgan imkoniyatlar, turli mavzulardagi seminar-treninglar har bir yoshning o'z iste'dodini yuzaga chiqarishiga zamin yaratadi.

Men ham maktabda «Kamolot» YOIH sardori bo'lganimdan so'ng o'tkazgan tadbirlarim — «Qizlar davrasi», «Balli, yigitlar!», guruhlararo «Zakovat» intellektual o'yini, ingliz tilida insholar tanlovi maktabimiz o'quvchilariga juda manzur bo'ldi. Bunday tadbirlar tengdoshlarimni bilim olishga, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga undaydi. Shunday ekan, siz ham bo'sh vaqtingizni «Kamolot» bilan o'tkazing.

Nilufar TURSUNNAZAROVA,

Navoiy shahar kasb-hunar kolleji o'quvchisi



Farg'onalik ijodkor tengdoshingiz Jumagul Nishonova «Beshariq tongi» gazetasining jamoatchi muxbiri, «Yosh iste'dodlar» adabiyot to'garagi a'zosi.

– Yosh qalamkash qizimiz tahririyatimizda ijod sirlarini o'rganmoqda. Uning dolzarb mavzularda yozgan «Kiyinish odobi», «O'quvchi va telefon», «Bugunning yoshlari» kabi maqolalari tumandagi maktab va kollejlarning ma'rifiy yig'inlarida o'qib eshittirildi, – deydi «Beshariq tongi» gazetasi Bosh muharriri S. Temirov.

«Xalq so'zi» gazetasida chop etilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «O'zbek xalqiga tinchlik va omonlik kerak» risolasi jahon jamoatchiligi e'tiborida» deb nomlangan maqoladan ilhomlanib, o'zining «Taraqqiyot kafolati» sarlavhali maqolasini yozibdi.

TAHRIRIYAT

TARAQQIYOT KAFOLATI



Bugun qay go'shaga bormang, kim bilan suhbatlashmang, Istiqlolimizning 22 yilligini munosib kutib olganiga guvoh bo'lamiz. Buning negizida, avvalo, tinchlik, xotirjamlik yotadi. Chunki bayramlar tinch, osuda yurtga yarashadi-da. Tinchlik dunyodagi eng buyuk boylikdir. Tinchlik bo'lsa, yaratish, mehnat qilish, o'z qobiliyatini namoyon etish imkoniyati yaratadi. Xalqimiz tinchlikni yuksak qadrlaydi, uni o'z orzu-intilishlari, maqsad-muddaolari ro'yobga chiqishining kafolati, deb biladi. Mustaqillik va tinchlik egiz tushuncha. Istiqlol shu qadar buyuk kuch, tinchlik esa el-yurt uchun poyonsiz ehtiyojdir.

Lekin dunyoda tinchlikni buzish, odamlarni sarson-

sargardon qilish orqali g'arazli maqsadlariga yetishni ko'zlagan yovuz kimsalar, vahshiy kuchlar ham borki, ular insoniyatni hamisha nizo, adovat, urush va qirg'inlar domiga tortib keladi. Shuning uchun ham tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash bugungi kunda ham dolzarb masala bo'lib kelmoqda.

Buyuk ajdodlarimiz tinchlik-totuvlikni Vatan ravnaqi, xalq farovonligining asosiy sharti, deb bilgan. Urush va nizo chiqqan joydan fayz-baraka ketishiga ko'p bora guvoh bo'lgan Prezidentimiz «Mustaqillik osmondan tushgan ne'mat emas, ne-ne kurashlar, fidoyiliklar evaziga Istiqlolga erishdik», deya bot-bot takrorlaydilar. Shunday ekan, yurtimizdagi tinchlik va barqarorlikni asrab-avaylash, qadriga yetish har birimizning burchimizdir.

Jumagul NISHONOVA,
Beshariq qishloq xo'jalik
kasb-hunar kolleji o'quvchisi

XXI asrni «Texnika asri» deb atashgani bejiz emas. Negaki, bugun zamonaviy axborot texnologiyalari hayotimizga shiddat bilan kirib bormoqda. Endilikda uyimizda o'tirgan holda internet orqali dunyoning istalgan burchagida sodir bo'layotgan voqea-hodisalardan xabardor bo'lish imkoniga egamiz.

FARZANDINGIZ INTERNET TARMOG'IDA

Bunday imkoniyatlardan unumli, maqsadli foydalanayotgan yoshlarimiz bilan bir qatorda, internetdan bo'sh vaqtini o'tkazish sifatida foydalanayotganlar ham yo'q emas. Yaqinda avtobusda 13-14 yoshlar atrofidagi ikki o'spirinning harakati e'tiborimni tortdi. Ikkoviyam qo'l telefoniga yozib olingan videolavhalarni tomosha qilar, biri ikkinchisiga kechagina internetdan ko'chirib olgan bir lavhani aytib maqtana ketdi. Qiziqishim ortib, ularning diqqatini tortgan sahnaga ko'z tashladim. Tasvir qaysidir chet davlatda olingani ishtirokchilarning notanish tildagi shovqinli ovozidan bilinib turardi. Yuzlariga qora niqob taqib olgan uch-to'rt jangari olomon oldida qo'l-oyoqlari bog'langan bir yigitga jismoniy azob berishardi. Bu dahshatli manzarani kiprik qoqmay tomosha qilayotgan haligi bolakaylarning kelajagi haqida o'ylab qoldim.

Xo'sh, internet tarmog'ining salbiy oqibatlarini oldini olish, axborot xavfsizligini ta'minlash uchun nimalarga e'tibor berishimiz kerak? Shu kabi savollar bilan ruhshunos Kamola UMAROVAga murojaat qildik:

– Darhaqiqat, XXI asr yoshlarimiz hayotiga sezilarli chizgilarni kiritdi. Bugungi avlodning kattalarga nisbatan kompyuter savodxonligi baland. Texnik taraqqiyotni to'xtatish mumkin

emas. Kompyuter savodxonligi ko'rsatkichi ko'p hollarda insonning yuqori salohiyatini belgilab beruvchi omilga aylanib bormoqda. Bugun kompyuterda ishlashni bilmaydigan xodimni yaxshi mutaxassis deb bo'lmaydi. Agar o'tgan asrning oxirlarida yoshlarning bo'sh vaqtdagi eng sevimli mashg'ulotlari musiqa tinglash, teleko'rsatuvlar ko'rish bo'lgan bo'lsa, ayni kunda kompyuter va internet bu qiziqishlarni yosh avlod hayotidan asta-sekin siqib chiqarmoqda. Shubhasiz, internet kerakli axborotlarni olish uchun ulkan imkoniyatlar yaratadi. Biroq, tarmoqqa joylashtiriladigan axborotlarning barchasini ham ishonchli va foydali deb bo'lmaydi. Ma'lumotlarning to'g'riligini ajrata bilish uchun esa foydalanuvchilardan tanqidiy fikrlash qobiliyatiga, o'z mustaqil fikriga ega bo'lish talab etiladi.

«Internetda bo'lsa, demak, to'g'ri», deya fikrlaydigan bolalarga internetda xohlagan inson o'z sahifasini yaratishi, unga har qanday ma'lumotni joylashtirishi mumkinligini, undagi ma'lumotlarning to'g'riligiga, asosli



Samarqand tumanidagi 14-maktab o'quvchilari internetdan oqilona foydalanishyapti.

ekanligiga hech kim kafolat bera olmasligini tushuntirish zarur. To'g'riligi tasdiqlanmagan axborotlardan himoyalaniishga o'rgatish lozim. Biroq, dunyo tarmog'idagi qanday axborot maktab yoshidagi bolalar uchun foydali bo'lishi mumkin?

Kuniga bir necha soatlab tarmoqda «sayohat qiladigan» o'smirlar aslida nima bilan shug'ullanadi va bu holat ularning dunyoqarashi, ruhiyatida qanday aks etadi?

Mazkur savollar biz kattalarni tobora ko'proq tashvishga solyapti va o'ylantiryapti. Bunga jiddiy asos ham bor. So'nggi paytlarda internet orqali ta'qib etish yoki ilmiy tilda aytadigan bo'lsak, grifing holatlari ko'p kuzatilmoqda. Bu kabi tarmoq bezorilarining eng birinchi qurbonlari aynan yoshlarimiz qatlami, xususan, o'smirlar hisoblanadi. Sababi, bu yoshda ular o'ta ishonuvchan, kompyuter o'yinlariga qobiliyatli, buyruqlarni osonlikcha bajaradigan bo'ladi. Va dunyoga faqat ijobiy nuqtayi nazar bilan qaraydilar. O'zlari erishgan yutuqlari bilan o'rtoqlashishni, o'z fikrlarini bironlarga bayon etishni, g'oyalari bilan bo'lishishni xohlaydilar. Atrofdagilar bilan ko'proq muloqotda bo'lib, yangidan yangi fikr-g'oyalarni o'rta tashlaydilar. Ularni amalda qo'llashga intiladilar, biroq, bu borada ularga hayotiy tajriba yetishmaydi.

Shuning uchun ham ular saytlarda qidiruvni amalga oshirayotganda, axborotni qabul qilishda yoki elektron pochta manzilidan foydalanayotganda, kattalar yordamiga muhtoj bo'ladi. Chunki bir qarashda beozor tuyulgan chatxonalar yoki maxsus muloqot ijtimoiy tarmoqlari orqali kechadigan suhbatlar, tafakkuri endi shakllanayotgan bolalarni oxir-oqibat jinoyat ko'chasiga yetaklab borayotgani hayotiy haqiqat.

Aziz ota-onalar! Siz farzandingizning puxta bilim olishi uchun bir xonani darsxona qilib bergansiz. Ularning zamon bilan hamnafas kamol topishini niyat qilib, kompyuter sovg'a qildingiz. Bu sa'y-harakatlaringiz tahsinga sazovor. Biroq, farzandingizning do'stlari kimlar yoxud uning internet tarmog'ida qanday saytlardan foydalanayotganidan xabardormisiz? Ularning ruhiyatida qanday o'zgarishlar bo'layotganini kuzatyapsizmi? Shu kabi savollarni o'zimizga berib, farzandarimizga e'tiborliroq bo'lishni bugundan boshlaylik. Zero, dilbandlarimiz ruhiyatining sog'lomligi buyuk kelajagimizning mustahkam poydevoridir.

Nurbek QIDIRALIYEV

«KIM KO'P KITOB O'QIYDI?» tanloviga

Qadrlı o'quvchilar, mana, quvnoq yozgi ta'tilni ortda qoldirib, kuch, g'ayrat bilan yangi o'quv qilini ham boshlab yubordingiz. Endilikda sinfdoshlaringizga maroqli ta'til taassurotlaridan sozlab berayotgan bo'lsangiz, ajabmas.

Aminmizki, o'qigan kitoblaringiz yuzasidan qiziqarli bahs va munozaralarga ham kirishyapsiz.

Gazetamiz orqali «Kim ko'p kitob o'qiydi?» tanlovi e'lon qilingani yodingizdami? Ta'til kunlarida ko'plab kitob o'qigan bo'lsangiz, marhamat, tanlovimizda qatnashing. O'qigan kitoblaringiz soni kamroq bo'lsa ham, xafa bo'lmang, kitobxonlik sari qo'ygan ilk qadamingizni qutlaymiz.

Quyida kitobxonlik tanlovida ishtirok etish maqsadida bizga maktub yo'llagan tengdoshlaringiz bilan tanishtiramiz...

BIR MAKTABDAN QO'SH MAKTUB



Qoraqalpog'iston Respublikasi, Kegeyli tumanidagi 11-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Ayjamal Karamatdinova bizga yo'llagan maktubida mazkur bilim dargohining 4-sinfida tahsil olayotgan jajji kitobxon Nilufar Qaypanovanning tanlovda ishtirok etish niyatida ekanligi haqida yozibdi.

Maktab rahbari Z.Joldasova ham bu qizchani aqlli, zukko, bilimga chanqoqligi bilan barchaga ibrat bo'layotganini alohida ta'kidlabdi. U maktabda o'tadigan «Qushlar bizning do'stimiz», «Yosh qaldirg'ochlar», «Yosh rassomlar» kabi tanlovlarda faol ishtirok etib, ko'plab «Faxriy yorliq»larni qo'lga kiritib kelayotgan ekan.

– Nilufarning shu kungacha o'qigan badiiy kitoblari soni 30 tadan oshib ketdi. Uning qo'lga kiritgan muvaffaqiyatlari va intilishlarini hisobga olgan holda mazkur tanlovda qatnashishga munosib deb bilaman va omad tilayman, – deb yozibdi maktab rahbari kitobxon qizaloqqa bergan tavsifnomasida.

Shuningdek, eng faol muxbirlarimizdan bo'lgan Ayjamalning o'zi ham mazkur tanlovda ishtirok etish niyatini bayon qilibdi. 300 ga yaqin badiiy kitoblar o'qigan bu qizimiz haqida maktab rahbari juda iliq fikrlar bildiribdi.

U maktabda a'lo baholarga o'qish bilan birga, Qoraqalpog'iston Teleradiokompaniyasining «Bolalar» studiyasi teleko'rsatuvining «Kitoblar olami» ruknida boshlovchilik ham qilib kelayotgan ekan.

O'tgan yili mazkur tanlovda 3-o'rin sohibasi bo'lgan bu tirishqoq qizimiz bu yil yanada ko'proq kitob o'qib, g'oliblikka intilmoqda.

DILSHODAGA ISHONAMIZ



Tanlovimizga kelgan navbatdagi maktub egasi Dilshoda Mamadaliyeva Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumanidagi 10-umumta'lim maktabida tahsil oladi. Ingliz tili, rus tili, algebra va musiqa fanlariga mehri

bo'lakcha bo'lgan bu qizimizning ham eng sevimli mashg'uloti kitob o'qish ekan. O'qigan kitoblardan ilhomlanib, o'zi ham ko'plab she'rilar mashq qila boshlabdi. Ayni paytda uning ijod namunalari tuman, shahar va respublika nashrlarida tez-tez chop etilib turibdi. Shunday she'rilaridan jamlangan «Bahor nafasi» nomli to'plami shu yilning bahorida o'quvchilar qo'lga yetib bordi.

May oyida viloyatda «Kitob bayrami» doirasida o'tkazilgan tanlovda qatnashib, «Eng yosh kitobxon» nominatsiyasi g'olibi bo'lgan Dilshoda viloyat hokimining qo'lidan «Faxriy yorliq» olish baxtiga muvassar bo'ldi.

– Maktabimizning bilimdon, zukko, faol o'quvchilaridan bo'lgan Dilshodaxonning «Kim ko'p kitob o'qiydi?» tanlovida ham g'olib chiqishiga umid qilamiz, – deya unga ishonch bildirishibdi maktab rahbari Z. Sarimsoqova hamda kutubxona mudiri S. Karimova.

TAHRIRIYATDAN:

Ustozlarning ezgu tilaklariga qo'shilgan holda biz ham kitobxon o'quvchilarimizga omad tilaymiz!

Eslatib o'tamiz, o'quvchilar ma'naviyatini yanada yuksaltirish, ularni kitobxonlikka jalb qilish, murg'ak qalblarida kitobga mehr uyg'otish maqsadida tashkil qilingan mazkur an'anaviy tanlovimiz 1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni arafasida yakunlanadi.

Shoshiling, tanlovda qatnashib, eng qimmatli sovg'a – yaxshi kitoblarni qo'lga kiriting.

O'g'il bolalar, Siz ham faolroq bo'ling.



Sirdaryo viloyati, Guliston shahridagi 12-maktabning 8-«A» sinf o'quvchilari – O'g'iloy va Xayrinisa Abdullajonova ta'til davomida o'nga yaqin kitob o'qishga ulgurishdi.

KITOBXON QIZ



Tanlovda ishtirok etish niyatida tahririyatimizga maktub yo'llagan o'quvchilardan yana biri poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 193-maktabning 5-«D» sinf o'quvchisi E'zoza Muhammadovadir. Maktab rahbari

A. Nazarova hamda sinf rahbari Sh. Rajabovanning unga bergan tavsifnomasida yozilgan jummalarni o'qib, behad quvondik: – E'zoza a'lo o'qishi, namunali xulqi, barcha fanlarga, xususan, adabiyot faniga bo'lgan qiziqishi bilan tengdoshlaridan ajralib turadi.

U yangi chiqqan kitoblarni, albatta, o'qishga harakat qiladi. Ayniqsa, muallif dasxti yozilgan kitoblarni juda qadrlaydi. 2012-yil adabiyot fanidan «Bilimlar bellashuvi»da qatnashib, tuman miqyosida 2-o'ringa sazovor bo'ldi. Hozirda u she'rilar mashqiga ham kirishgan. Ijod namunalari «Gulxan» jurnalida chop etildi. Maktab tadbirlarida faol, «Baxri bayt» mushoirlarida hamisha g'olib chiqadigan bu umiddi o'quvchimizni tanlovda ishtirok etishga tavsiya qilamiz.

Navoiylik Umida Sattorovani Siz gazetxonlarga tanishtirishning hojati bo'lmas kerak. Ha-ha, esladingsiz-a, sevimli yozuvchimiz Xudoyberdi To'xtaboyevga gazetamiz orqali maktub yo'llagan tengdoshingiz.

UMIDADAN UMIDIMIZ KATTA



Kitobxonlik tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan bu qizimiz haqida ham maktab rahbari Ye. Xolmanov va sinf rahbari B.Shukurov juda iliq fikrlar bitishibdi: – Umidaxonning adabiyotga, she'riyatga bo'lgan havasni u 3-sinfda o'qib yurgan chog'laridayoq payqagandik. She'rilar, ertak va hikoyalar qoralab yurardi. Tirishqoq, maktab tadbirlarida faol bo'lgan bu qizaloq «Kimning xati chiroyli?»,

«Bilimlar bellashuvi» kabi tanlovlarda qatnashib, ko'plab maqtov yorliqlari bilan taqdirlangan. «Yangi avlod – 2012» bolalar ijodiyoti festivalining tuman bosqichida III darajali Diplomni qo'lga kiritdi. Kitob o'qish uning sevimli mashg'uloti bo'lgani uchun ham maktabimizning eng kitobxon o'quvchisi sanaladi.

Kitobsevar qizimizni tanlovda qatnashishga munosib nomzod deb bilamiz. Umidadan umidimiz katta!





Katakdan chiqib Xo'roz,
O'ylanib qoldi biroz:
Qayga borsam, yemak mo'l,
Nima qilsam, tanovul.

Tegirmonga yo'l uzoq,
Eng yomoni – bor tuzoq.
Bog'da don-dun talaydir,
Bormayman, it talaydi.

DANGASA XO'ROZ

...Tumshug'ini cho'zib so'ng,
Titkilaydi yana go'ng.




OY VA QUYOSH

– Quyosh oyni ko'rmaydi,
Oy quyoshni ko'rmaydi.
Nega, dada, ikki do'st
Qo'l ushlab yurmaydi?!

– Quyosh kunduzga chiroq,
Oy bo'lsa, tunga chiroq.



Aslida ikki o'rtoq
O'ynaydi bekinmashoq.



KIM NIMA G'AMDA?

To'tiqsh to'tilarga
Dars o'tadi «o'qish»dan.
Dakang xo'roz jo'jaga
Ta'lim berar cho'qishdan.

Ovozi bor binoyi,
Echki qilar xirgoyi.
O'rgimchak sal panada
Sabog berar to'qishdan.

Yolg'iz o'zi inida,
Kuzning so'nggi kunida,
Ninachi o'y suradi:
«Qanday chiqsam bu qishdan?»

– Yolg'on!
– Rost.
– Qasam ich!

– Oldin o'zing qasam ich
qovurib yeyishganiga. Keyin
men...

U jim bo'lib qoldi.

Bildimki, chayonni qovurib yeyish
haqidagi gapi yolg'on. Lekin menga
yengilgisi yo'q. Axir u kimsan –
Sodiqov-da!

– Ha, gaping rost bo'lsa, qasam
ich, – dedi o'yinboshimiz Tursunboy
ham men taraf bo'lib.

– Og'zingga tolqon solvoldingmi,
Sodiqov? – dedim men g'olib
kelgandek.

Bolalar kulishdi. Sodiqov qizardi-
bo'zardi. Og'irligini u oyog'idan-bu
oyog'iga tashlab turdi-da, tomoq qirib
sipolandi.

– Qasam ichmayman, qasam ichsa,
odam do'zaxda kuyadi, puldan garov
o'ynayman, – dedi u birdaniga.

– Puldanmas, menda pul yo'q, – dedim
shoshib.

– Bo'lmasa nimadan, – ustimdan kuldi
Sodiqov, – a, nimadan? Bilmasam, bilib qo'y,
garovni faqat puldan o'ynaydi...

Men puldan boshqa yana nimadan o'ynash mumkin,
degandek o'yinboshimiz Tursunboyga qaradim.
Sodiqovdan yengilib qolishim alam qilayotgan edi. Qani
endi shu chog'da bir ishkal chiqsa-yu, Sodiqovni miriqib
do'pposlasam.

O'YINBOSHI QAROR QILADI...

Tursunboy Sodiqovga o'xshaganlarni yoqtirmasa
ham bunaqa paytlarda odil yo'l tutadi. Boy deb puli
ko'pga, kambag'al deb puli yo'qqa yon bosmaydi.
Tursunboy ancha xayol surib qoldi-da, keyin
ikkovimizga ham qarab:

– Kim yolg'on gapirgan bo'lsa, chayonga
chaqtiramiz, – dedi u.

Bolalar: «Uv-v-v!» deb yuborishdi. Badanim
jimirlab, bir seskanib tushdim. Tursunboy hech kim
o'ylamagan shunaqa qarorlar chiqarishga usta edi.
Shuning uchun ham o'yinboshi edi-da. U bilan birga
bekinmashoq o'ynasak, bizni hech kim topa olmas edi.

BOLISHIM


Faxriddin HAYIT

Oppoq bolishim,
Yumshoq bolishim,
Bosh qo'ysam agar,
Orom berasan.

Tushlarimda ham,
Sirlaring baham.
Ko'rib zavqdan bir
Olam berasan.

Oftob bilan teng,
Uyg'onaman tong.
Ishda, o'qishda
Sergakman har on.

Oppoq bolishim,
Yumshoq bolishim,
Doimo saqla,
Boshimni omon!



TEJANKOR QIZ



Ishdan kelsam,
Farzonaning ko'zida yosh.
Ayt-chi, qizim,
urdi seni qaysi bebosh?

– Oyim, – dedi
ovozlari titrab sekin, –
Men hech yomon
ish qilmadim, dada, lekin.

Ukam bilan
buzmadik biz qoidani.
O'ykladik-da,
tejamkorlikni, foydani.

Asrab qo'yib,
oq qog'ozni, reja tuzdik.
So'ngra uyning
devoriga rasm chizdik.

BOLALIGIM ERTAKLABARI

(Qissa)

Erkin MALIK

(Boshi o'tgan sonlarda)

Sodiqov bo'lsa nuqul menga qarab tirjayadi. Shu
payt ustoz kirib qoldi-yu, sinf tinchidi-qoldi. Ammo men
tinchimni yo'qotdim. Sinfdoshlarim hecham meni
bunaqa kalaka qilishmas edi. Keyin sinfda mening
obro'yim Sodiqovdan ancha yuqori edi. Ustozning o'zi
a'lochiligimni aytib: «Qo'shningga o'xshasang
bo'lmaydimi, Sodiqov, senga nima yetishmaydi o'zi?!»
deganlarini hamma eshitgan. Nimagadir endi
Sodiqovning malayiga aylanib qolganimga hayron
bo'lardim. Chiday olmadim. To'xtasinni turtdim: «Nima
bo'ldi, nimaga uning malayi deyishyapti?» Sodiqov
bolalarga a'lochining holini ko'rib qo'yinglar, men uni
bir shapaloq qoqiga sotib oldim. Bugundan boshlab u
mening malayim bo'ladi. Ishonmasalaring, mana
ko'rsanlar, hozir u sinfga mening koptogimni qo'ltiqlab
kirib keladi, depdi. Sodiqovning gapini tasdiqlab shu payt
sinfga men kirib kelibman...

O'zimni o'zim yomon ko'rib ketdim. Xo'rligim kelib,
dod deb yig'lagim keldi. Nimaga men bunaqa
ahmoqman? Nimaga Sodiqovning oyog'i tagiga o'zimni
tashlab berdim? Xohlaganingcha ustimdan kul, deb.
Yo'q, yo'q, unday bo'lmaydi, hech qachon bo'lmaydi!
Men darsni ham, ustozni ham esdan chiqarib o'mimdan
turdim-da, koptok bilan Sodiqovning boshiga tushirdim.
Sinfda to's-to'polon boshlandi...

Shu-shu uni ko'rarga ko'zim qolmadi.


– Ko'zing bilan ko'rganmisan qovurib yeganini, a,
mana shu ko'zing bilan? – so'rayman Sodiqovdan eski
alamlarim qo'zib.

– O'zing-chi, o'zing ko'rganmisan oyog'idan
chaqtirganini, a, mana shu ko'zing bilan? – deb
tepamga keldi u. Qo'lini beliga tirab, kim bo'libsam,
degandek menga tepadan qaradi.

– Ko'rganman, bildingmi, ko'rganman, – dedim
azbaroyi qizishganimdan yolg'on gapirib. Qanday
bo'lmasin, Sodiqovning tilini qisib qo'ydim keldi. Lekin
bu yolg'onim boshimga qancha balalar olib kelishini
bilmasdim.

– Yolg'on, – dedi u ko'zlari o'ynab.

– Rost.



S. FARMONOV chizgan rasm

U qo'rqmay qabristonlarga boshlab kirar, o'pirilib
tushgan ochiq go'rlarga berkinishga majbur qilardi. Yoki
bo'lmasam, jin va alvastilar uya qurgan sadalar ustiga
olib chiqib ketardi. Bularni kunduz kunlari eslasak,
qo'rquvga tushardik. Ko'rib turibman, Sodiqovning
rangi oqarib ketdi. Buni ko'rib menga jon bitdi. Rostdan
ham chayonga chaqtirish menga qiziq tuyuldi. Keyin
hamma chayon chaqqanlar ham o'lib qolmagan-ku!
Moxovlar ham tirik yuribdi-ku!

– Ha, qo'rqyapsanmi? – o'zimni botir ko'rsatib
so'rayman Sodiqovdan.

– Hechamda... o'zing qo'rqib ketyapsan... – deydi
u ham zo'rma-zo'raki tirjayib.

– Bo'pti, chayonga chaqtirish bo'lsa chaqtirish-da, qo'l
tashlashamiz, sen uzasan, – dedim Tursunboyga qarab.

Tursunboy bunaqa o'yinlarning irim-sirimlarini
yaxshi biladi. U ikkovimizning o'rtamizga turib oldi-da,
boshqalarniyam yaqinroq kelishga undadi. Keyin
shunday dedi:

(Davomi bor)

SHAXMATCHILARIMIZ SHOHSUPADA

Keyingi yillarda yurtimizda sportga qaratilayotgan yuksak e'tibor natijasida yosh avlod o'rtasida shaxmat sport turi jadallik bilan ommalashib bormoqda. Natijada, yoshlarimiz orasidan Nafisa Mo'minova, Gulruhbegim Tohirjonova, Nodira Nodirjonova, Trina Gevorgyan, Nodirbek Abdusattorov, Javohir va Islombek Sindorov kabi haqiqiy iste'dod egalari yetishib chiqmoqda. Ularning qit'a va jahon chempionatlari, turli nufuzli musobaqalardagi muvaffaqiyatli ishtiroki barchamizni birdek xushnud etayotir.

Shri-Lanka davlatida shaxmat bo'yicha maktab o'quvchilari o'rtasida o'tkazilayotgan IX Osiyo chempionatida iste'dodli yosh shaxmatchilarimiz o'zlarining nimalarga qodir ekanliklarini namoyish etib, qit'a mamlakatlardan kelgan tengdoshlariga har jabhada o'rnatq bo'lmoqda. Osiyoning 14 mamlakatidan to'rt yuz nafarga yaqin yosh iste'dod egalari ishtirok etayotgan mazkur musobaqada shaxmatchilarimiz rapid – tezkor shaxmat bahslarida ikkitadan oltin va kumush medalni qo'lga kiritdi.

Chempionatning dastlabki bahslari rapid – tezkor shaxmat bo'yicha tashkil etildi. O'n bir yoshgacha qizlar musobaqasida juda kuchli o'yin namoyish etgan umidli shaxmatchimiz Dilbar Hamroyeva

malayziyalik Amira Amirul, shri-lankalik Sandaruvi Vitanage, Ximasha Jayasekera, Roshel Askey, Sayuni Jayavira va Birlashgan Arab Amirliklaridan Vafiya al-Maammariyini mag'lubiyatga uchratib, mezbonlar vakilasi Sasika Goyumi bilan durang o'ynadi va jami 6,5 ochko bilan birinchi o'rinni egalladi.

11 yoshgacha o'g'il bolalar bahsida mag'lubiyatsiz dona surgan yana bir yurtdoshimiz Shamsiddin Vohidov yetti imkoniyatdan olti ochko jamg'arib, Osiyo chempioni degan sharafli nomga sazovor bo'ldi. Quvonarlisi, Ortiq Ne'matov va Hojiakbar Foziljonov ham terma jamoamiz hisobiga bittadan kumush medalni qo'shib qo'yishdi.



Rapid – tezkor shaxmat bo'yicha yuqori natijalarni qo'lga kiritgan umidli shaxmatchilarimiz musobaqa doirasida shveysarscha usulda to'qqiz turdan iborat klassik shaxmat bo'yicha ham sovrinli o'rnlarga da'vogarlik qilishmoqda. O'tkazilgan dastlabki ikki tur natijalariga ko'ra, Shamsiddin Vohidov, Ortiq Ne'matov va Hojiakbar Foziljonov o'z yosh toifalari bo'yicha peshqadamlik qilishmoqda.

Sa'dullo TURSINOV

MEZBONLAR G'OLIB

Namangan shahrida 15 yoshgacha bo'lgan o'smirlar o'rtasida suv polosi bo'yicha O'zbekiston ochiq chempionati yakunlandi.

Samarqand, Namangan, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahri hamda Qozog'iston Respublikasidan jami 11 ta jamoa ishtirok etgan musobaqada Namangan viloyati o'g'il bolalar terma jamoasi g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Musobaqaning qizlar o'rtasida o'tkazilgan

bahslarida ham namanganlik sportchilarning qo'li baland keldi.



Turkiyaning Istanbul shahrida o'quv-mashg'ulot yig'inini o'tkazayotgan o'n olti yoshgacha bo'lgan O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi rejaga muvofiq uchta o'rtoqlik sinov-nazorat uchrashuvini o'tkazdi va ularning barchasida g'alaba qozondi.

O'SMIRLARIMIZNING UCH G'ALABASI

Temur Olimxo'jayev

bosh murabbiyligi-dagi yosh futbolchilarimiz dastlab «Istanbulspor» (U-17) klubi o'smirlariga qarshi maydonga tushib, yirik – 7:1 hisobida g'alaba qozonishdi. Hamyurtlarimiz «Zaraspor» (U-17)

klubiga qarshi maydonga tushgan ikkinchi uchrashuv ham o'zbek o'g'lonlarining yirik g'alabasi bilan yakun topdi – 7:0. Yig'in davomidagi so'nggi uchrashuv esa «Beshiktosh» (U-17) klubi o'smirlariga qarshi o'tkazildi. Murosasiz kechgan uchrashuvda o'zbekistonlik o'smirlar 3:2 hisobida g'alabaga erishdilar.

Eslatib o'tamiz, O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi 2014-yili Tailand mamlakati mezbonlik qiladigan o'n olti yoshgacha bo'lgan (U-16) o'smirlar o'rtasidagi Osiyo chempionati final bosqichi saralash bahslarida ishtirok etadi. Darvoqe, «B» guruhi o'yinlariga mazkur yilning 25–29-sentabr kunlari O'zbekiston poytaxti Toshkent shahri mezbonlik qiladi.

Shoh MUHAMMAD



MAHALLANING MAHORATLI YOSHLARI

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 22 yilligiga bag'ishlab «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Nukus shahar Kengashi tomonidan tashkil etilgan turnir mahalla yoshlarining bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga qaratilgan bilan ahamiyatlidir.

Shu munosabat bilan Nukus bolalar tennis sport maktabida 1997–2003-yillarda tug'ilgan o'g'il-qizlar o'rtasida stol tennisi bo'yicha musobaqa bo'lib o'tdi.

Musobaqa yakunlariga ko'ra Muhammadali Xudoyberganov, Gulxan Jalg'asboyeva, Saylovboy Qaliyev, Qalamqas Po'latova, Tileumurat Azamatdinov o'z tengdoshlaridan ustun kelib, g'oliblikni qo'lga kiritdi.



GULLARIM CHAMAN-CHAMAN...

«Tong yulduzi» gazetasining har bir sonini katta qiziqish bilan o'qib boraman. Dolzarb mavzudagi maqolalar, ertak, hikoya va she'rlar meni befarq qoldirmaydi. Ulardan o'zim uchun foydali maslahatlar olaman.

«Ingliz tilini o'rganamiz» sahifasi orqali chet tilidagi so'z boyligim ortmoqda. Tahririyatga maktub yo'llashimdan maqsad, men gullarni juda sevaman. Gazetaning 28-sonida bosilgan «Gullarni seving» nomli maqolani diqqat bilan o'qib chiqdim. Gullar parvarishiga oid maslahatlar berishingizni iltimos qilardim, deya maktub yo'llabdi

Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanidan Visolaxon Vohidova. Visolaxon, gullarni sevrishingiz, ularga befarq emasligingiz juda yaxshi. Zero, go'zallikka intilgan insonlardan yomonlik chiqmaydi.

Quyida gullar parvarishiga oid ayrim maslahatlarimiz bilan tanishasiz. Gullarni derazadan o'tob tushib turadigan tokchalarda o'stirish lozim. Bir banka suvga tuxum po'chog'ini solib, qopqog'ini yopib qo'ying. Suv bir haftacha kalsiy moddasiga to'yinsin. So'ngra, oz-ozdan gullarga quyib chiqing. Shunda gullaringizning novdasi, ildizi mustahkam bo'ladi.

Fialka gulini o'stirish ham alohida e'tiborni talab qiladi. Bu gul parvarishida nihoyatda hushyor bo'ling, suvni tuvakning tagidan bir haftada bir marta asta-sekinlik bilan quyib turing. «Pul chaqiruvchi gul»larga ham haftada bir marta suv quysangiz, kifoya. Ularga suvni gulning ustidan quyish tavsiya etiladi. Me'yorida ortiqcha sug'orilgan gullarning ildizlari chirib ketishi mumkin. Biz insonlar shirin so'zga, mehrga qanchalar tashna bo'lsak, gullar ham xuddi shunday. Shuning uchun parvarishlayotgan gullaringizga mehr ko'rsating, erkalang, shunda ular sizga olam-olam zavq ulashadi.


Manzura UBAYDULLAYEVA

G'AROYIB MANZARA

Bu, qiziq!

Avstraliyalik suratlash Karl Uorner fantastik darajada go'zal, buning ustiga iste'mol qilsa bo'ladigan manzaralarni yaratdi. U ishtaha ochar kartinalarini turli xildagi mahsulotlardan tayyorladi. Qoyalar nondon, xarsang toshlar kartoshkalardan, chorqirra toshlar loviyadan hamda to'lqinlar qizil karamdan yasalgan.

Oldiniga eskiz tayyorlandi, buning



uchun ko'plab sabzavot va mevalar kerak bo'ldi. Ular bir necha kun davomida maxsus shakllarga keltirildi. So'ngra, ular bir-biriga birlashtirib ajoyib manzara hosil qilindi. E'tiborli tomoni shundaki, bu manzarani ko'rgan bolalar chips va boshqa turdagi zararli mahsulotlardan voz kechib, g'aroyib shakldagi meva va sabzavotlarni tanovul qilishni ma'qul ko'rishmoqda.

ZUHRA tayyorladi

Gazetaning 35-sonida berilgan «BILIMLAR MASKANI» KROSSVORDIning javoblari:
Bo'yiga: 1. Adabiyot. 2. Botanika. 5. Boshlang'ich. 9. Tushum. 10. Monitor. 11. Ravish. 14. Alifbe. 15. Lirik. 16. Egalik. 17. Albom.
Diagonal bo'yicha o'ngga: 1. A'lo. 3. Antonim. 7. Odobnoma. 12. Diktant.
Diagonal bo'yicha chapga: 2. Baho. 3. Algebra. 6. Imtihon. 12. Darslik.
Eniga: 4. Bayon. 8. Kitob. 13. Lemma. 14. Amal. 16. Ega. 18. Kesim.
MUAMMONOMA
Kalit so'zlar: 1. Tabiyot. 2. Kesma. 3. Vergul. 4. Chizg'ich. 5. Son. 6. Qo'shish. 7. Had.
Hikmat: Maktub yoshlik gulshani, bolalar esa uning bebaho nihollari, ustoz-o'qituvchi – bu bog'ning dono sohibkori.

Ushbu sonda Respublika rassomlik kolleji o'quvchilari Zulayho MO'MINOVA, Mohira MUHAMMADJONOVA chizgan rasmlardan foydalanildi.

8

9-sentabr 2013

Bosh muharrir
Feruza JALILOVA

TAHRIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV,
Abdug'ani XOLBEKOV,
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Sa'dullo TURSINOV
(Bosh muharrir o'rinasari),
Feruza ADILOVA
(mas'ul kotib),
Zikrilla TESHABOYEV,
Sobitxon TURG'UNOV

Navbatchi muharrir
Sayyora QODIROVA
Rassom
Feruza MATYOQUBOV
Dizayner
Shaxobiddin MAXMADIYEV
Musahhif
Nargiza ABDULLAYEVA

Manzillimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeksi: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel: 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi – 47425
Buyurtma N: J 8005

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markazi
Kengashi.
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatiga
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

MASHHURLAR HAYOTIDAN

Yevropadan AQSHga ko'chib kelgan Albert Eynshteyn Nyu-York ko'chasida keta turib, tasodifan bir tanishini uchratib qoldi.

– Eynshteyn janoblari, – dedi tanishi salom-alikdan so'ng, – siz, albatta, yangi palto sotib olishingiz kerak. Egingizdagi juda eskirib ketibdi.

– Qo'yavering, – dedi Eynshteyn beparvo qo'l siltab. – Baribir meni Nyu-Yorkda hech kim tanimaydi.

Oradan ancha yillar o'tgach, Eynshteyn yana o'sha tanishini uchratib qoldi. Buyuk fizikning egnida hali ham o'sha palto edi. Tanishi unga bu safar ham yangi palto olishi kerakligini eslatdi.

– Endi buning hojati yo'q! – dedi olim xotirjam ohangda. – Chunki bu yerda meni hamma taniydi...

Albert Eynshteyn Charli Chaplin o'ynagan filmlarni juda yoqtirardi. Shu bois unga xat yo'lladi: «Filmlaringizni dunyoda hamma odamlar tushunadi. Shuning uchun ham siz buyuksiz!»

Maktubga Charlin Chaplin quyidagicha javob qaytardi: «Men esa sizga ko'proq qoyil qolaman. Negaki, sizning nisbiylik nazariyangizni hech kim tushunmaydi, shunday esa-da, siz baribir buyuk bo'ldingiz».

BONU tayyorladi

«Qish g'amini yozda ye», deydi dono xalqimiz. Ayni pishiqchilik pallada bog'larimizda oltindek tovlanib turgan olma, nok, anjir, shaftoli kabi shirin-shakar mevalardan sharbat va murabbolar tayyorlashda onajonlarimizning yaqin yordamchisiga aylangandirsiz-a, aziz qizlarjon?!

Quyida biz ham bu borada ayrim tavsiyalar bermoqchimiz.

OLXO'RILI MURABBO



Kerakli masalliqlar:
2 kg. olxo'ri,
1 kg. shakar,
1 litr suv.

Tayyorlanishi: Olxo'rilar yaxshilab yuviladi va danagidan ajratiladi. Bo'laklarga bo'linib, shakar aralashiriladi. So'ngra, biroz suvi chiqquncha qoldiriladi. Suvi chiqqan olxo'rilar ustiga yana biroz suv solib qaynatiladi. Qaynash jarayonida



murabboning ko'piklari tez-tez olinadi va kavlab turiladi.



Murabbo

yetilganini likopchaga bir tomchi tomizib bilish mumkin. Likopchani aylantirib ko'ring, agar tomchi oqmasa, u yetilgan hisoblanadi. Olxo'ri murabbo sovigach, bankalarga solinadi va qopqoq bilan mahkam yopiladi.

NARGIZA tayyorladi

TOPISHMOQLAR



Oilaga vafoli,
Yomonlarga jafoli.
Ko'cha-ko'yda tegmaydi,
Hovliga hech qo'ymaydi.



Oyoqsiz tez yugirar,
Qurbagani xush ko'rar.
Tushda ko'rsang ganch emish,
O'ngda ko'rsang, yanch demish.

Ustida ko'pdir xoli,
Dardga davodir boli.
Gul ustida parvona,
Mehnat bilan ovora.



Sadoqat SOLIDDINOVA,
Toshkent viloyati, Parkent tumani